O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUHAMEDOV ASROR ASADOVICH

YUSUF XOS HOJIB VA MISHEL MONTEN IJTIMOIY-FALSAFIY MEROSINING KOMPARATIVISTIKASI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

| Muhamedov Asror Asadovich | | | |
|------------------------------------|----------------|-------------------|--------------|
| Yusuf Xos Hojib va Mish | iel Monten | ijtimoiy-falsafiy | merosining |
| komparativistikasi | | | 3 |
| Мухамедов Асрор Асадович | | | |
| Компаративистика социально-фи. | тософского на | аследия Юсуфа Хо | с Хаджиба и |
| Мишеля Монтеня | | | 25 |
| Muhamedov Asror Asadovich | | | |
| Comparative studies of social-phil | osophical heri | itage of Yusuf Kh | as Hajib and |
| Michel de Montaigne | | | 49 |
| E'lon qilingan ishlar ro'yxati | | | |
| Список опубликованных работ | | | |
| List of published works | | | 54 |

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUHAMEDOV ASROR ASADOVICH

YUSUF XOS HOJIB VA MISHEL MONTEN IJTIMOIY-FALSAFIY MEROSINING KOMPARATIVISTIKASI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

09.00.03 – Falsafa tarixi

FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fal200 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya Arlundi uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ik-falsafa@nuu uz va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Egamberdiyev Azizbek Abdumalikovich falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'ychiyev Berdiqul Turaqulovich falsafa fanlari doktori, professor

Ismoilov Muhammadixon falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov Abduxakim Ziyovuddinovich falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oʻzbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 19-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida boʻlib oʻtadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi Yoshlar ittifoqi binosi 1-qavat Tel: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (155-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «19» dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «19» dekabr _21-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

Thniy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falkafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

O'.G'. Tilavov

Ilmiy darajala r beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent.

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda buyuk allomalar tomonidan yaratilgan falsafiy merosni oʻrganish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ming yillar avval koʻtarilgan ijtimoiy muammolar va ularning yechimiga doir Sharq va Gʻarb allomalarining konsepsiyalari bugungi kunda ham oʻzining ilmiy ahamiyatini yoʻqotmagan. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten kabi ikki olimning besh yuz yil farqi bilan yaratgan asarlaridagi ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasini taqqoslash, ulardagi oʻziga xoslik va umumiylikni aniqlash orqali global hamda lokal muammolarga javob izlash, bugungi kundagi ma'naviy kemtiklarni toʻldirishga yoʻnaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyodagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlardagi ilmiy markazlarda Yusuf Xos Hojib hamda Mishel Monten asarlari chuqur oʻrganilmoqda. Sharq va Gʻarb Uygʻonishining dastlabki bosqichida ijod qilgan ikki allomaning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi oʻz davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham ahamiyatli qarashlardan tarkib topgan. Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy taraqqiyotda bilimning ahamiyatiga oid qarashlarining falsafiy asoslanishi, Mishel Montenning bola tarbiyasiga doir qarashlarini har tomonlama oʻrganish, taqqoslash orqali umuminsoniy gʻoyalar mushtarakligini tushunib yetishga boʻlgan intilish yaqqol sezilib turibdi. Ushbu allomalar asarlari boʻyicha tadqiqotlar global xarakterga ega boʻlib, hozirda ular oʻz vatanlaridan koʻra ilm-fan rivojlangan boshqa davlatlarda koʻproq oʻrganilmoqda.

Oʻzbekiston Uchinchi Renessans deb atalayotgan ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qoʻymoqda. "Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uygʻonish jarayonlari milliy oʻzlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtaradi. Bunday noyob hodisa "Renessans" — uygʻonish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon"¹. Bu esa birinchi va ikkinchi Renessans davrlarini chuqur ilmiy tadqiq qilish, ayniqsa Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten kabi buyuk faylasuflarning asarlarini oʻrganish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-158-son Farmoni, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida"gi PQ-50420-son qarori, 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-4307-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son "Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi, 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga

 $^{^1}$ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмокда. — Тошкент: Ўқитувчи, 2021.-10 б.

oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida''gi 1059-sonli Qarori va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Hozirgi davrda Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijodining oʻziga xos jihatlari va insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi ahamiyati masalasiga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Bilejik Shayx Adiboliy universiteti, Fotih Sulton Mehmet vaqf universiteti, Istanbul universiteti (Turkiya), Qirgʻiziston-Turkiya Manas universiteti (Qirgʻiziston-Turkiya), Yusuf Bolasogʻun nomidagi Qirgʻiziston Milliy universiteti (Qirgʻiziston), Bordo universiteti (Fransiya), Penn davlat universiteti (AQSH), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Oʻzbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universitetlari (Oʻzbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyoda "Qutadg'u bilig" asarining yozilish davri, tarixiy makon va zamondagi ahamiyati, XI asrda turkiy tilda yozilgan asarlar orasida "Qutadg'u bilig"ning turk madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb etganini tadqiq etish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalar olingan: mazkur asarning yozilgan paytdan to bugungi kungacha ma'naviy-madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazib kelayotganini e'tirof etish, Yusuf Hos Hojib hayoti va adabiy, tarixiy-falsafiy qarashlarini chuqur yoritib berish, turkiy adabiyotda koʻplab adabiy janrlarning ilk namunasi bo'lgan "Qutadg'u bilig"ning ko'p ma'noli mohiyati, oʻziga xos jihatlari (Fotih Sulton Mehmet vaqf universiteti, Turkiya), "Qutadg'u bilig" asaridagi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, badiiy jihatlarning zamoviy ahamiyati (Istanbul universiteti), turk tilining rivojlanishida mazkur asarning oʻrni, tarixiy mohiyati, bibliografiyasi (Bilejik Shayx Adiboliy universiteti, Turkiya), Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati, qarashlari (Manas universiteti), Yusuf Xos Hojib ma'naviy merosining tub mohiyati, tarixiy ahamiyati (Yusuf Bolasog'un nomidagi Qirg'iziston Milliy universiteti, Qirg'iziston), Mishel Monten ijodi va ma'naviy merosi (Bordo universiteti, Fransiya), Monten estetikasining neyrokognitiv tahlili hamda oʻrta asr nominalizmiga bagʻishlangan tadqiqotlar (Penn davlat universiteti, AQSH), XI asrga oid qo'lyozmalar tadqiqi (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti), XI asr tarixiy-ma'naviy merosining o'ziga xos jihatlari, mohiyati, G'arb va Sharq allomalari qarashlarining qiyosiy tahlili,

⁻

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: https://www.fsm.edu.tr/, <a href="https://www.fsm.edu.tr/, https://www.fsm.edu.tr/, https://www.fsm.ed

ajdodlarimiz asarlarining ma'naviy taraqqiyotdagi o'rni (O'zbekiston Milliy universiteti)ga oid keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Jahonda Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijodining oʻziga xos jihatlari va insoniyat ma'naviy taraqqiyoti bilan bogʻliq masalalarni oʻrganish boʻyicha ustuvor yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, falsafa tarixida Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten falsafasining konseptual-metodologik asoslari; Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi dialektika, kamparativistikani tadqiq etish; ajdodlar merosida tarixiy vorisiylikni oʻrganish; mafkuraviy, madaniy globallashuv sharoitida ma'naviy strategiya asoslarini ishlab chiqishda ajdodlarimiz tarixiy merosini chuqur oʻrganish, qadriyatli jihatlarini aniqlash.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asarini oʻrganish boʻyicha dunyoning turli nuqtalarida qator ilmiy izlanishlar e'lon qilingan.

Birinchi guruhga A.Jaubert, H.Vamberi, V.Bartold, V.Grigoryev, V.Radlov, A.Kononov, S.Malov, P.Juze, O.Pritsak, A.Shcherbak, Ye.Tenishev va I.Steblova kabi yevropalik sharqshunos olimlarni kiritish mumkin. Ular tomonidan ahamiyatga molik tadqiqotlar amalga oshirilgan va asar haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan³.

Ikkinchi guruh tadqiqotlar yaqin xorijdagi faylasuf olimlarining ilmiy ishlaridan iborat. Asar turkiy dunyodagi dastlabki yozma badiiy dostonlar biri boʻlgani sabab turkiyalik olimlarning ham diqqat markazida boʻlib kelmoqda. "Qutadgʻu bilig"ning bilimdonlaridan biri, yirik turkolog olim Rashit Rahmati Aratning tadqiqoti turkshunos olimlar oʻrtasida ancha mashhurdir⁴. Shuningdek, A.Dilachar⁵, K.Eraslan, O.F.Sertkaya⁶, A.B.Erjilasun⁷, I.Kafesoʻgʻlu⁸, N.Kulekchi⁹, E.Ushenmez¹⁰, K.Yavuz¹¹ kabi olimlar asarning matnshunosligi, lisoniy va badiiy jihatlari xususida bahs yuritganlar.

Uchinchi guruhga qatagʻon siyosati sababli koʻpchilikning nazaridan chetda qolgan Fitratning "Qutadgʻu bilig" asarining lisoniy nuqtayi nazaridan tahlilini koʻrsatish mumkin. Keyinchalik Qayum Karimov aytganidek: "...Fitratning ismini va asarini tilga olish tufayli oʻsha vaqtda u soʻroq qilinib ancha qiynoqlarga uchragani hammaga ma'lumdir"¹².

³ Хамидов Х.Х. "Кутадғу билиг"нинг Ўзбекистонда ва Туркияда ўрганилиши // Жахон туркологиясининг буюк обидаси "Кутадғу Билиг" ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 115-119.

⁴ Arat R R. Kutadgu Bilig I: Metin. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. 1991. – 656 s.

⁵ Dilaçar A. Kutadgu Bilig, – Ankara: 1972. - B.203.

⁶ Sertkaya O. İslâmî Devrenin Uygur Harfli Eserlerine Toplu Bir Bakış. – Bochum: 1977.

⁷ Ercilasun, A. B. Başlangıcından Yirminci Yüzyıla Türk Dili Tarihi, Akçağ Yayınları, – Ankara: 2004. – 488 b.

⁸ Kafesoğlu İ. Kutadgu Bilig ve Kültür Tarihimizdeki Yeri, Kültür Bakanlığı Yayınevi. – İstanbul: 1980.

⁹ Külekçi N. Yusuf Has Hacip ve Kutadgu Bilig, Toker Yay., – İstanbul: 2011. – 104 b.

¹⁰ Üşenmez E. "Kutadgu Bilig (Nemengan /Fergana/ – Özbekistan: 2011. - B. 16.

¹¹ Yavuz K., Yusuf Has Hacip ve Kutadgu Bilig, Tür Dili ve Edebiyatı Dergisi, Cilt 37, Sayı 37. 2007. – B. 37.

 $^{^{12}}$ Темур Хўжа ўғли. Abdurauf Fitratning turkologiyada e'tibordan chetda qolgan "Qutadg'u bilig" matn nashri (1928) // Жахон туркологиясининг буюк обидаси "Қутадғу Билиг" ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. — Тошкент: 2020. — Б. 79.

Qayd etib oʻtilganidek, Qayum Karimov asarning transkripsiyasi va hozirgi oʻzbek tilidagi tavsifini 1971-yilda nashr ettirdi¹³. U keyinchalik ham shu mavzudagi tadqiqotlarini davom ettirib, qator ilmiy izlanishlarini e'lon qildi. Yana bir manbashunos-sharqshunos olim Q.Sodiqov "Qutadgʻu bilig"ning uygʻur yozuvli Hirot nusxasi" deb nomlangan ilmiy tadqiqotini e'lon qildi¹⁴. Unda asarning nisbatan kechroq koʻchirilgan nusxasi, uning oʻziga xosliklari haqida fikr yuritiladi.

Tilshunos olimlardan Q.Omonov, A.Rustamov, Gʻ.Abdurahmonov, S.Mutalibov, B.Toʻxliyev kabilar asar haqidagi qator ilmiy izlanishlarini chop ettirganlar¹⁵.

Gʻarb uygʻonish davri falsafasi boʻyicha L.M.Batkinning fundamental asarlari, M.Xaydeggerning zamon va borliq falsafasi prizmasida Uygʻonish davri, V.F.Mordvinsevning uygʻonish davri allomalari asarlari tahliliga bagʻishlangan qator asarlari va Georgiy Smizning uygʻonish davridagi siyosat falsafasiga bagʻishlangan qator asarlari mavjud boʻlib, ular u yoki bu jihatdan Mishel Monten davri falsafasi mohiyatini tushunib olishga xizmat qiladi¹⁶.

P.S.Taranov Mishel Monten asarlarining biografik lugʻatini ishlab chiqqan. Unda Monten ijodining bosqichlari ijtimoiy muhit va adib dunyoqarashidagi oʻzgarishlar transformatsiyasi nuqtayi nazaridan ochib berilgan. A.V.Dyakovning alloma asarlariga bagʻishlangan asarlari ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, V.Vizginning "Fransuz tafakkukuri haqidagi ocherklari"da ham Monten falsafasiga doir qarashlar mavjud. I.Baklanov, O.Baklanova va Ye.Avdeyevlar tomonidan yaratilgan qator tadqiqotlarda Monten falsafasida bilimning oʻrni va roli xususida qiziqarli faktlar mavjud.

O'zbekistonda Mishel Montenning falsafiy merosi bo'yicha U.E.Qurbonovning "Yetuk axloqiy shaxsni shakllantirishning falsafiy omillari (Mishel Montenning "Tajribalar" asari asosida)" mavzusidagi dissertatsiyasi alohida ahamiyatga egadir¹⁷. Ushbu asarda birinchilardan bo'lib alloma ijodi keng miqyosda gamrab olindi. Shuningdek, S.Yuldoshev, R.Karimov, Q.Nazarov, D.Normatova, A.Samadov, M.Usmonov, G.Ro'zmatova, S.Chorivev, X.Shayxova, S.Shermuhamedov, Q.Shodmonov, G.Qobulniyozova, O.G'aybullayev olimlarning asarlarida ham faylasuf merosining u yoki bu jihatlari xususida so'z boradi.

Oʻzbekistonda Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten asarlarining komparavistikasiga bagʻishlangan yaxlit tadqiqot shu kunga qadar e'lon qilinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining

¹³ Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи: Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан, 1971; Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 224.

 $^{^{14}}$ Содиков Қ. "Қутадғу билиг" нинг уйғур ёзувли Хирот нусхаси. — Тошкент: 2010. — 159 б.

¹⁵ Qutatgʻu bilig. J.I. Yusuf Xos Hojib; mas'ul muharrir A.Rustamov; nashrga tayyorlovchi Gʻ.Abdurahmonov. ToshDShI. – Тошкент: Alisher Navoiy Qutatgʻu bilig nomidagi Oʻzbekiston Qutatgʻu bilig Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 240 b.

¹⁶ Ушбу муаллифларнинг асарлари фойдаланилган адабиётлар бўлимида берилган.

 $^{^{17}}$ Қурбонов У. Етук ахлокий шахсни шакллантиришнинг фалсафий омиллари (Мишел Монтеннинг "Тажрибалар" асари асосида): Фалс. фан. бўй. фалс. док....дис. — Бухоро: 2022. — Б. 9

2017-yil 20-yanvarda tasdiqlangan "Oʻzbekistonda modernizatsiya jarayonlari va innovatsiyalarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining uygʻun va farqli jihatlarini uygʻonish davri prizmasida tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Markazlashgan davlat umumiy muloqot maydonining paydo boʻlishida Sharq va Gʻarb renessansining genezisiga ta'sir koʻrsatgan omillari, aniq va tabiiy fanlarning rivojiga hissa qoʻshgan mutafakkir allomalar merosining gumanistik gʻoyalar rivojlanishiga ijobiy ta'sirini aniqlash;

"Qutadgʻu bilig" va "Tajribalar" asarlarining bir-biridan davrlararo nisbatan uzoqligi hamda qarashlaridagi umumiy aloqadorlik, davlat va jamiyat boshqaruvi, amaliy tajribasidagi uygʻunligini asoslab berish;

Yusuf Xos Hojibning inson ma'naviy rivojlanish konsepsiyasida axloqiy jamiyat, adolatli hukmdor, davlat va jamiyatning ta'siri dominantligi asosida huquq va axloqning ustunligiga, Mishel Monten ijodida oila va tarbiyaning ustuvorligi asosida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish tajribasiga e'tibor qaratilganini ochib berish:

Yangi Oʻzbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishida Yusuf Xos Hojibning axloq va bilim konsepsiyasi, Mishel Montenning shaxsni rivojlantirish konsepsiyasining yoshlar ongi tafakkurida bilim orqali shaxsiy rivojlanish motivlarini kuchaytirish imkoniyatlarini aniqlash;

Yoshlarning ijtimoiy borliqni tushunishidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda Yusuf Xos Hojibning jamiyat-davlat-inson haqidagi qarashlari bilan Mishel Montenning skeptitsizmi uygʻunlashuvi imkoniyatlaridan amaliy foydalanish.

Tadqiqotning obyekti Yusuf Xos Hojib va Mishel Montenning ijtimoiy-falsafiy merosi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" va Mishel Montenning "Tajribalar" asari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining qiyosiy tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada dialektika, sinergetika, komparativ va germenevtik tahlil, analogiya, analiz, sintez, umumlashtirish usullaridan hamda aksiologik, praksiologik, deterministik yondashuvlardan, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sharq va Gʻarb renessansining genezisida ikki muhim omil – markazlashgan davlat umumiy muloqot maydonining paydo boʻlishi birinchi makonda aniq va tabiiy fanlarning rivojiga katta hissa qoʻshgan boʻlsa, ikkinchi holatda gumanizm gʻoyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatgani aniqlangan;

"Qutadgʻu bilig" va "Tajribalar" asari bir biridan ham makon, ham zamon nuqtayi nazaridan uzoqda yaratilishiga qaramasdan mualliflarning uygʻonish davri namoyandalari ekani hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi amaliy tajribasi tufayli bu asarlardagi gumanistik gʻoyalar uygʻun ekanligi isbotlangan;

Yusuf Xos Hojibning insonning ma'naviy rivojlanish konsepsiyasida davlat va jamiyatning ta'siri dominantligi asosida huquq va axloqning ustunligi namoyon

bo'lsa, Mishel Montenda esa oila va tarbiyaning ustuvorligi asosida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishiga katta e'tibor berilganligi ochib berilgan;

Yangi Oʻzbekistonning ma'naviy taraqqiyotida Yusuf Xos Hojibning bilim konsepsiyasi, Mishel Montenning zamonaviy pedagogikaga asos boʻlgan shaxsni rivojlantirish konsepsiyasidan foydalanish orqali yoshlarning dunyoqarashida bilim orqali shaxsiy rivojlanish motivlarini kuchaytirish imkoniyatlari ochib berilgan;

Yusuf Hos Hojibning idealistik jamiyat haqidagi qarashlari bilan Mishel Montenning skeptizmi uygʻunlashuvi yoshlar ongidagi ijtimoiy borliqni tushunishdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oʻzbekistonda uchinchi Renessansning ma'naviy asosi sifatida birinchi va ikkinchi Renessans, shuningdek, Yevropa uygʻonish davri allomalari tomonidan yaratilgan asarlarning oʻrni katta. Shu nuqtayi nazardan Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ma'naviy merosi bugungi "milliy uygʻonishdan milliy tiklanish va undan milliy yuksalish sari" gʻoyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega;

Global qarama-qarshilik avj olib, turli madaniyatlar oʻrtasida kelishmovchiliklar avj olayotgan bir sharoitda Shaq va Gʻarbning bir-biriga hamohang, dunyoni ilm orqali anglash va rivojlantirishga katta hissa qoʻshadigan "Qutadgʻu bilig" va "Tajribalar" kabi buyuk asarlar madaniy integratsiyada muhim rol oʻynaydi;

Avlodlar nazariyasiga asosan bugungi zumerlar avlodining dunyoqarashida bilim olishga, mehnat qilishga intilishdan koʻra shaxsiy muvozanat va kayfiyat muhimroq rol oʻynaydi. Mana shunday sharoitda ularga motivatsiya berish, ming yillar davomida amal qilib kelgan axloqiy qoidalarni singdirishda har ikki buyuk allomaning asarlaridan foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar toʻplamlari, OAK roʻyxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari, nashr etilgan monografiyalaridagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, falsafa, psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning nazariy masalalarini oʻrganishda muhim ahamiyatga egaligi bilan, shuningdek, Oʻzbekistonda uchinchi Renessansning ma'naviy poydevorini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan mulohaza va xulosalar bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlar bilan tashkil etiladigan ishlarni metodik ta'minlashda, zamonaviy video va audiokontentni tayyorlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, oʻzbek va fransuz xalqlari oʻrtasidagi doʻstlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan ishlarda ham qoʻl keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparavistikasi natijasida olingan natijalardan:

Sharq va G'arb renessansining genezisida ikki muhim omil – markazlashgan davlat umumiy muloqot maydonining paydo boʻlishi birinchi makonda aniq va tabiiy fanlarning rivojiga katta hissa qoʻshgan boʻlsa, ikkinchi holatda gumanizm g'oyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganiga oid nazariy xulosalar, metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy mailis senatining mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis senatining mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2024-yil 12-avgustdagi 27-son ma'lumotnomasi). takomillashtirishda, Natijada qo'mitaning qonunlarni saylovchilar bilan uchrashuvlarda hamda nazorat-tahlil amaliyotida foydalanishi natijasida qoʻmita faoliyatining natijadorligi ortgan;

"Qutadgʻu bilig" va "Tajribalar" asari bir biridan ham makon, ham zamon nuqtayi nazaridan uzoqda yaratilishiga qaramasdan mualliflarning uygʻonish davri namoyandalari ekani hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi amaliy tajribasi tufayli bu asarlardagi gumanistik gʻoyalar uygʻun ekanligiga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviya tadqiqotlar instituti faoliyatida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviya tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-avgustdagi 10/53-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga xizmat qilgan;

Yusuf Xos Hojibning insonning ma'naviy rivojlanish konsepsiyasida davlat va jamiyatning ta'siri dominantligi asosida huquq va axloqning ustunligi namoyon bo'lsa, Mishel Montenda esa oila va tarbiyaning ustuvorligi asosida shaxsning o'zini oʻzi rivojlantirishga katta e'tibor berilganligi xususidagi xulosalar, metodologik tavsiyalar hamda amaliy takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi teleradiokanali" davlat muassasasi faoliyatida foydalanilgan "O'zbekiston (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat 16-sentabrdagi 02-28-1016-son muassasasining 2024-yil ma'lumotnomasi). Natijada teleradiokompaniya tomonidan tayorlangan koʻrsatuvlarda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda qanday g'oyalar va qarashlarni ma'naviy rivojlanishda asos qilib olinishi muhim ahamiyatga ega ekanligiga oid ilmiy xulosalardan ma'lumot sifatida foydalanilgan;

Yangi Oʻzbekistonning ma'naviy taraqqiyotida Yusuf Xos Hojibning bilim konsepsiyasi, Mishel Montenning zamonaviy pedagogikaga asos boʻlgan shaxsni rivojlantirish konsepsiyasidan foydalanish orqali yoshlarning dunyoqarashida bilim orqali shaxsiy rivojlanish motivlarini kuchaytirish imkoniyatlari xususidagi amaliy tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar Vazirligi Andijon davlat pedagogika universiteti "Yangi avlod darsliklariga metodik yordam" nomli ilmiy loyiha faoliyatida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar Vazirligi Andijon davlat pedagogika universiteti "Yangi avlod darsliklariga metodik yordam" nomli ilmiy loyihaning 2024-yil 25-iyundagi 01-329-son buyrugʻi). Natijada ilmiy loyiha asosida tayorlanayotgan Yangi avlod

darsliklarini yaratishda Yusuf Xos Hojibning bilim konsepsiyasi, Mishel Montenning ta'limsohasiga oid qarashlari metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Sharq va G'arb renessansining genezisida ikki muhim omil – markazlashgan davlat umumiy muloqot maydonining paydo bo'lishi birinchi makonda aniq va tabiiy fanlarning rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, ikkinchi holatda gumanizm g'oyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlanganligi, "Qutadg'u bilig" va "Tajribalar" asari bir biridan ham makon, ham zamon nuqtayi nazaridan uzoqda yaratilishiga qaramasdan mualliflarning uygʻonish davri namoyandalari ekani hamda davlat va jamiyat boshqaruvidagi amaliy tajribasi tufayli bu asarlardagi gumanistik g'oyalar uyg'un ekanligi isbotlanganganligi, Yusuf Xos Hojibning insonning ma'naviy rivojlanish konsepsiyasida davlat va jamiyatning ta'siri dominantligi asosida huquq va axloqning ustunligi namoyon bo'lsa, Mishel Montenda esa oila va tarbiyaning ustuvorligi asosida shaxsning oʻzini oʻzi rivojlantirishiga katta e'tibor berilganligi ochib berilganligi, Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotida Yusuf Xos Hojibning bilim konsepsiyasi, Mishel Montenning zamonaviy pedagogikaga asos boʻlgan shaxsni rivojlantirish konsepsiyasidan foydalanish orqali yoshlarning dunyoqarashida bilim orqali shaxsiy rivojlanish motivlarini kuchaytirish imkoniyatlari ochib berilganligi, Yusuf Xos Hojibning idealistik jamiyat haqidagi qarashlari bilan Mishel Montenning skeptizmi uygʻunlashuvi yoshlar ongidagi ijtimoiy borliqni tushunishdagi qarshiliklarni bartaraf etishi aniqlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi targʻibot ishlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 2024 yil 18 oktyabrdagin 156son dalolatnomasi). Natijada yoshlarni boy ma'naviy merosni, Sharq va G'arb Renessansi allomalarining asarlarini oʻrganishga oid taklif va tavsiyalar targʻibot ishlarida asos bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 7 ta xalqaro, 8 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 38 ta ilmiy ish, jumladan, 3 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (ulardan 11 tasi respublika va 4 tasi chet el jurnallarida) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 224 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari, tadqiqot obyekti, predmeti, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy

etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi toʻgʻrisida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Sharq va Gʻarbda Renessans hodisasining ijtimoiyfalsafiy omillari" deb nomlangan birinchi bobida har ikki madaniy, ma'rifiy va ilmiy yuksalish hodisasining kelib chiqish sabablari, asosiy yoʻnalishlari va u bilan bogʻliq ijtimoiy jarayonlar ochib berilgan.

Birinchi bobning "Sharq Renessansining vujudga kelishidagi ijtimoiy omillar" deb nomlangan birinchi paragrafida Sharqda renessansning kelib chiqishi jarayoni haqida fikr yuritiladi. Birinchi Uygʻonish davri Oʻrta Osiyoda IX-XI asrlarda roʻy bergan juda katta ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, diniy, madaniy jarayon hisoblanadi. Ushbu davr toʻgʻrisida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildiradi: "Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma'naviy uygʻonish jarayonlari milliy oʻzlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtaradi. Bunday noyob hodisa "Renessans" — uygʻonish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon"¹⁸. Bizning fikrimizcha, renessansning kelib chiqishi quyidagilar bilan bogʻliqdir.

Birinchidan, Xitoydan Misrgacha boʻlgan hududni qamrab olgan yagona ilmiy til muhiti vujudga kelgan.

Ikkinchidan, ilm-fan sohasi vakillarini bir birlari bilan oʻzaro fikr almashishi, ilmiy musohabaga kirishi uchun institutsional asoslar — akademiyalarning paydo boʻlishi juda katta madaniy hodisa edi.

Uchinchidan, Qoraxoniylar davlati kabi markazlashgan davlatlarning paydo boʻlishi, oʻz-oʻzidan ijtimoiy va siyosiy sohadagi ilmiy izlanishlarni ham taqozo etdi va "Qutadgʻu bilig" kabi asarlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Ushbu bobning "G'arb Renessansiga turtki bo'lgan omillar" nomli ikkinchi paragrafida keyingi yuksak madaniy ko'tarilishning genezisi bilan bog'liq masalalar yoritib oʻtilgan. Renessans davri Yevropada XIV asrdan boshlandi. Usbu tarixiy, ijtimoiy voqelik jarayonida turli xil hududlar va mamlakatlarda turlicha takrorlanmas madaniy oʻzgarishlar, ta'bir joiz boʻlsa inqiloblar yuz berdi. Gʻarbiy Yevropada "Uygʻonish uch davrni bosib oʻtdi. Bular asosiy (XIV asr), yetuklik (XV asr) va soʻnggi (XVI asr) davrni qamrab oladi"19. Professor Q.B.Shodmonov ta'kidlaganidek, "har bir madaniyatning turli bosqichlarida, qarama-qarshi tendensiyalarning oʻziga xos turini – bir davr madaniyati doirasidagi uslubiy shakllanishning koʻpligini ajratish mumkin, bunda empirizm va ratsionalizm bunday hodisalarning falsafiv fikrlari tarixidagi ziddivatli oʻrganilayotgan davr madaniyatining intellektual yadrosining rivojlanishi, tortishish markazining oʻzgarishi, madaniy kontekstning oʻzgarishi qiymat yoʻnalishlarining oʻzgarishidir"²⁰. Ushbu fikr tahlilidan shu narsa ayonlashadiki, oʻz davrining ilmiybadiiy merosida va eng muhim asarlarida o'sha davrning ma'naviy muhiti,

 $^{^{18}}$ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмокда. — Тошкент: Ўқитувчи, 2021.-10 b.

¹⁹ История философии в кратком изложении. Перевод с чешского И.Ш.Богута. – М.: 1991. – 574 с.

²⁰ Шадманов К. Английская духовность и язык. – Дюссельдорф: Изд-во Lambert, 2015. – 264 с.

dunyoqarashning mohiyati, tafakkur tarzini tiklash orqali hayotning barcha jabhalari toʻliq aks ettiriladi.

Renessans davrida falsafiy fikrlarning taraqqiyoti, ayniqsa, XVI asrning ikkinchi yarmida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda ilm-fan markazi Fransiyaga koʻchadi, chunki XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida bu yerda ma'rifatchilik harakati kengaydi. Fransuz ma'rifatchiligining oʻziga xos xususiyatlari, bizning fikrimizcha, U.E. Qurbonov tomonida toʻgʻri ta'kidlanganidek, quyidagilardan iborat:

- 1. "Baynalmilalchilik kayfiyatida ekanligi.
- 2. Feodalizmga qarshi qaratilganligi.
- 3. Dinga qarshi, antiklerikal xususiyatga egaligi.
- 4. Fanning kuchiga va ahamiyatiga qattiq ishonish.
- 5. Kelajakka ko'tarinki ruh bilan qarash"²¹.

Ushbu prizmadan qarasak, Uygʻonish davrining yorqin vakili Montenning ijtimoiy-axloqiy qarashlari zaminida uchta oʻziga xos tezis yotadi.

- 1. "Inson har doim hayotda ma'lum axloqiy qoidalarga amal qilishi lozim.
- 2. Borliqning bir butunligini e'tirof etgan holda insonning tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashashi.
- 3. Inson aql-zakovati uning oliy belgisi boʻlib, uning hukmiga boʻysunishi zarur"²². Fikrimizcha, bu gʻoyalar nafaqat Uygʻonish davrining, balki zamonaviy hayot tarzimizning muhim tamoyillarini tashkil etishi kerak.

Dissertatsiyaning "Yusuf Xos Hojib "Qutudg'u Bilig" va Mishel Montenning "Tajribalar" asarlarining vujudga kelishi va undagi asosiy falsafiy g'oyalar" deb nomlangan ikkinchi bobida ikki asarning vujudga kelishi, o'sha davrdagi ijtimoiy jarayonlar va ularning asarlarda ilgari surilgan bosh g'oyalarga ta'siri haqida so'z boradi. Bobning dastlabki paragrafi "Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining vujudga kelishi va undagi ijtimoiy-falsafiy g'oyalar" deb nomlanadi. "Qutadg'u bilig" – XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Yusuf Xos Hojib uni Bolosogʻunda boshlab, Qashqarda yozib tugatgan va qoraxoniy hukmdor Tavgʻach Bugʻroxonga taqdim etgan. Bugʻroxon muallifni taqdirlab, unga "Xos Hojib" ("Eshik og'asi") unvonini bergan. Shundan keyin shoir "Yusuf Xos Hojib" nomi bilan mashhur bo'lgan. Lekin dostonning oxiridagi shikoyat ohanglariga qaraganda, shoir umrining oxiri bu davlatning tanazzuli davriga toʻgʻri kelgan, shunga muvofiq hayoti ham ogʻir kechgan. Shoirning Qashqardagi maqbarasi ziyoratgohga aylangan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asarining ijtimoiy falsafiy ahamiyati haqida soʻz borganda asarning ilmiy jamoatchilikka e'lon qilinishi va uning talqini bilan bogʻliq qator masalalarni ham koʻrib chiqish zarur. Yuqoridagilardan ma'lum

²¹Қурбонов У.Э. Етук ахлоқий шахсни шакллантиришнинг фалсафий омиллари (Мишел Монтеннинг "Тажрибалар" асари асосида): Фалс. фан. бўй. фалс. док. ...дис. – Бухоро, 2022. – Б.25.

 $^{^{22}}$ Qarang: Ильин А.И. Теория права и государства. – М.: Зерцало, 2003. (воспроизводится по изданиям 1915 и 1956 гг.). – 398 с.

boʻladiki, Yusuf Xos Hojibning ushbu yagona asari dunyoning turli mintaqalarida va turli tillarda koʻchirilgan nusxalari mavjud. Ushbu nusxalarning e'lon qilinishi ilmiy jamoatchilik tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olingan. Asarning tarixiy, tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan juda koʻp talqin va tadqiqotlari mavjud. Lekin asardagi ijtimoiy-falsafiy gʻoyalarning mazmuni yangi Oʻzbekistondagi ijtimoiy jarayonlar prizmasidan turib tahlil etilishiga doir tadqiqotlar mavjud emas. Bu esa kelgusida mazkur yoʻnalishdagi ilmiy ishlarni yanada kuchaytirish zaruratini vujudga keltiradi.

Yusuf xos Hojib falsafiy merosining yana bir jihati — olamni anglashda inson tafakkuriga nisbatan ishonch, ilm-ma'rifatning jaholat va zalolatdan chiqishda yagona yoʻl sifatida talqin qilinganligi. Shu sababli ham alloma asarlariga boʻlgan qiziqish qariyb yuz ellik yildan buyon tinmay kelmoqda. Bu esa Uchinchi Renessans jarayonining ma'naviy asosi boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "Tajribalar" asarining yozilishi va undagi falsafiy g'oyalar" deb nomlanadi. Mishel Eykem de Monten – XVI asr mutafakkiri va faylasufi. Mishel Monten ushbu asarni 1580-1588-yillari orasida yozib tugatgan. Bu Yevropa bo'ylab uzoq safaridan qaytgan ellik yoshli insonning hayot tajribalari asosida yozgan kechinmalaridir. Monten zamonaviy ta'lim olgan, bakalavr, magistr akademik darajasiga ega bo'lib, Bordoning ikki marotaba meri etib saylangan. Uygʻonish davrining asosiy xususiyatlaridan biri insonparvarlik, ya'ni insonning fikr markaziga qo'yilishidir. Asarining "Bolalar tarbiyasi to'g'risida"gi bobida Monten so'zlariga ko'ra, odob-axloq fani o'qishni o'rgatish kabi bolaga erta yoshdan o'rgatilishi kerak. Faylasuf o'z asarida shunday deydi: "Marhum otam men uchun eng nafis ta'lim berilishini tashkil qilgan edilar". U oʻzini qanday yashaganini taftish qilib, oʻzini tahlil qilish bilan shugʻullanadi. Oʻzo'zini tahlil qilish "namoyish qilish" uchun emas, balki "tushunishdan zavq olish" maqsadida oʻzining dunyoqarashidagi ziddiyatlar haqida bahs yuritadi. Tez orada unga ustozlari tomonidan o'rgatilgan axloqiy qadriyatlar bilan sayohati davomida koʻrgan turli mamlakatlarning madaniy hayoti oʻrtasidagi ziddiyatlar mavjudligiga amin bo'ladi. Bu esa Montenning mashhur "Que sais-je? (Men nimani bilaman?)" degan savolini tugʻilishiga sabab boʻlgan asosiy omillardandir. Monten falsafasining markazida insonni tushunish, unga boʻlgan ishonch va cheksiz xayrixohlik yotadi. Gumanist sifatida u hamma narsaga qiziqadi, dunyoni tushunishga va oʻzini anglashga harakat qiladi. Shu tariqa "Tajribalar" deb nomlangan asarida ko'pincha bahsli bo'lgan turli mavzular bilan shug'ullangan.

Dissertatsiyaning "Yusuf Xos Hojib va Mishel Montenning ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi" deb nomlangan uchinchi bobida inson, davlat va jamiyat rivojlanishida har ikki allomaning konsepsiyalari haqida fikr yuritiladi. Yusuf Xos Hojibning davlatchilik-shaxs, Mishel Montenning shaxs-jamiyat rivojlanishiga tayanib ishlab chiqqan gʻoyalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati bayon etiladi.

Ushbu bobning "Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy taraqqiyot konsepsiyasi" deb nomlangan birinchi paragrafida ta'kidlaganidek, uning hozirgi zamon

²³ Jung (d.). – Jean Jacques Rousseau: livres, lecture et bibliothèques... Villeurbanne: ecole nationale supérieure de bibliothèques, 1979.

faylasuflariga ham, olim-u fozillari va adiblariga ham, tabiblariga, astronom-u matematiklariga ham, muallim-u murabbiylariga ham, chorvadorlari, dehqonlari-u hunarmandlariga ham, xullas, barcha-barchaga aytadigan gapi bor. Yusuf Xos Hojibning o'z davri uchun ancha progressiv bo'lgan fikrlar – inson qadri masalasining ustuvor qoʻyilgani va ushbu qadriyatning determinantligi masalasi bo'yicha konseptual fikrlar ilgari surilgani bilan ham hozirgi kunda qadr ayniqsa ahamiyatlidir. Zamonaviy falsafiy, siyosiy va huquqiy konsepsiyalarda inson huquq va erkinliklari masalasi tobora chuqurlashib bormoqda. Oʻzbekistonda ham inson qadri milliy g'oya darajasiga ko'tarilib, butun davlat boshqaruvi tizimi inson manfaatlari uchun yo'naltirilmoqda. Jumladan, mazkur masalaga to'xtalgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: "Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz"²⁴. Shunday qilib, inson qadri-qimmatini ta'minlash respublikamizda davlatimiz siyosati darajasiga koʻtarilgan hozirgi davrda Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy-falsafiy fikrlari oʻz dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mutafakkirning olamni bilish haqidagi qarashlari ham alohida e'tiborga loyiq. Oʻzbek qutadgʻu biligshunoslik maktabining zahmatkash olimlaridan Q.Karimov fikricha, Yusuf Xos Hojibningning "gnoseologik nazariyasi obyektiv idealizmga asoslangan bo'lib, bilim zehnning mahsuli sifatida talqin qilinadi, aql, idrok birlamchi, bilim esa unga bogʻliq, ikkilamchi hodisa sifatida qaraladi. Shuning uchun ham inson bilimsiz tugʻiladi, soʻng oʻrganadi. Zehn esa tabiatga qoʻshilib yaratiladi, uni inson o'rganmaydi, u azaldan inson tabiatiga singdirilgan bo'ladi, bilish, oʻrganish qobiliyatining tub ilohiy asosi sanaladi"25. Lekin, mutafakkirning bilish nazariyasi XX asrning 70-yillarida obyektiv idealizm sifatida baholangan boʻlsada, zamonaviy psoxologiya, epistemologiya, pedagogika mutaxassislari tomonidan zehnning inson embriologik rivojlanishiga ham bogʻliqligi haqidagi gʻoyalar ilgari surilmoqda. Demak, inson ma'naviyatining asosini tashkil etuvchi olamni bilishga oid Yusuf Xos Hojibningning epistemologik qarashlari bugungi kunda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Mamlakatimiz tarixida ma'naviy merosimizga, milliy va diniy qadriyatlarimizga munosabat har doim ham birdek bo'lmagan.

Milliy mustaqillikka erishishimiz sharofati bilan Oʻzbekistonda milliy va diniy qadriyatlar qayta tiklanishi kuzatildi. Oʻtgan qisqa davr ichida oʻzgarishlarning eng yorqini milliy va diniy oʻzlikni anglash, ilm-fan va ta'lim salohiyatining oshishi bilan bogʻliq holda namoyon boʻldi.

Uchinchi bobning 2-paragrafi "Montenning ma'naviy rivojlanish konsepsiyasi" deb nomlanadi. Faylasuf va yozuvchi sifatida Montenning diqqat markazida Xudo emas, insonning oʻzi va, yoki tom ma'nodagi odam — Mishel Montenning oʻzi turadi. Ammo u Uygʻonish davrining "ulugʻ siymolaridan" farqli oʻlaroq oʻzini soddalik bilan roʻy-rost va ochiqchasiga baholaydi. Montenning inson

 $^{^{24}}$ "Инсон қадри биз учун қандайдир мавхум, баландпарвоз тушунча эмас" — Президент Sh.M.Mirziyoyev. https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident

²⁵ Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Тошкент. Фан., 1976. – 19 б.

konsepsiyasi markazida ulugʻvor, ilohiy tabiatga ega boʻlgan inson emas, balki oddiy odam turadi, shuning uchun ham u oʻziga nisbatan umid va gʻayratni uygʻotmaydi. Uning qarashlariga koʻra, inson — hayratlanarli darajada behalovat, oʻzgaruvchan va doimo ikkilanadigan jonzot, shu sababli u haqda barqaror va bir xil gʻoyani shakllantirish juda murakkab. "Oʻzingizning bilimingiz, fe'l-atvoringiz, odatlaringiz, nimalarga qodirligingiz va nimaga majbur boʻlmasligingiz haqida xabardor boʻling, soʻngra oʻz chegaralaringizni belgilab, dunyo haqida gapira boshlang. Qachonki, bu sizning va faqat sizning hukmingiz boʻlsa, siz haqiqatan ham oʻzingizni bilmaysiz", degan fikrlar - Montenning qat'iy shiori edi.

Monten "Tajribalar"idagi oʻz-oʻzini bilish jarayoni Avliyo Avgustinning "Iqrorlar" ("Confessiones") kitobidagi oʻz-oʻzini kuzatishiga oʻxshaydi. U ham oʻzining harakatlari va fikrlarini tahlil qiladi, ba'zida oʻzidan hech qoniqmaydi. Bu, ayniqsa, uning oʻzining intellektual qobiliyatlarini tanqid qilishida yaqqol seziladi. U, shuningdek ayrim faylasuflarning mutlaq haqiqat toʻgʻrisidagi da'volarini qat'iyan rad etadi. Shu bilan birga, Avliyo Avgustin va Monten oʻrtasidagi ma'naviy-ruhiy tafovut juda katta ekanligini ta'kidlash kerak. Chunki Monten oʻzining individual-psixologik, "men"idan tashqariga chiqmaydi. Ammo bu ichki "men" har qanday daqiqada oʻzini namoyon qilishga tayyor. Shuning uchun Monten insonning ichki dunyosini oʻrganish bilan bogʻliq masalalarga alohida e'tibor bergan boʻlsa ajab emas. Monten inson hayotining mazmun-mohiyatini tahlil qilar ekan, undagi qoʻrqoqlik va jasorat, mehnat va bekorchilik, haqiqat va yolgʻon, baxt va baxtsizlik, boylik va qanoat, vijdon va nomus kabi tushunchalarni ta'riflaydi va ularga baho berishga harakat qiladi.

Mutafakkir oʻz qarashlarini davom ettirib, ma'nosiz va mazmunsizligi bilan ajralib turadigan "umumiy qabul qilingan" dogmalarga qarshi ekanligini bildiradi. Buning sababi urf-odatlarning hukmronligi, hokimiyatning ustunligi bilan bogʻliq boʻlib, buni mutafakkirning quyidagi xulosasidan bilsak boʻladi: "odamlar bir xil yoʻl tutishadi, fanlarni oʻrganish hokimiyatning buyrugʻi bilan amalga oshiriladi, barcha maktablar bir xil koʻrinishda va bir xil tarbiya va ta'limga rioya qilishadi"²⁶. Monten qonunlarni aql va axloq mahsuli sifatida koʻradi. U qonunlar shafqatsiz yoki oʻzboshimchalik bilan qabul qilinmasligi, balki jamoat manfaatlariga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, u qonunlar inson huquqlarini himoya qilishi va erkinlikni ta'minlashi kerak, deb hisoblab, despotizm va zulmga qarshi chiqadi.

"Faylasuf bu borada bir qator nazariy manbalarning haqiqatga yaqin ekanligini ta'kidlaydi. U ta'kidlaganidek, ular qadimgi davrlarda, inson turli xil yondashuvlar va ilmiy maktablar orasida mustaqil ravishda tanlov qilish imkoniyatiga ega boʻlgan davrda hukmronlik qilgan fikr erkinligida aks etadi"²⁷.

Mishel Monten o'z davrida Bordo shaharning hokimi bo'lgan. Lekin, U hokimiyatni cheklash va nazorat qilish kerakligini, cheksiz hokimiyat

²⁶ Montaigne M. Les Essais / edition de Pierre Villey. – Paris.: Presses Universitaires de France, 1988. – L. I. p. 82-83.

²⁷ Скоропуд С.Н. Методологические возможности герменевтики для социально-философского анализа базовых концептов китайской культуры: Дисс... канд. филос. наук. – Красноярск, 2014. http://research.sfu-kras.ru/sites/research.sfu-kras.ru/files/Sorokopud 17 k .pdf

konsentratsiyasi uni suiste'mol qilishga, korrupsiyaga olib kelishini ta'kidlaydi. Monten zulmning oldini olish usuli sifatida kuchlarni ajratish zarurligi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan.

Olim bu fikrlari bilan demokratiyaning hokimiyat boʻlinishi tamoyillariga juda yaqin boʻlgan. Bu tamoyil xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga boʻlinishi²⁸ muhim konstitutsiyaviy prinsipi sifatida belgilab qoʻyilgan.

Adolat Monten siyosiy qarashlaridagi asosiy tushunchalardan biridir. Uning ta'kidlashicha, qonunlar adolatli bo'lishi va barcha fuqarolarga teng darajada qo'llanilishi kerak. Monten hokimiyatning o'zboshimchaliklarini qoralaydi va inson huquqlarini himoya qilish tarafdori. Uning fikricha, adolatli davlat o'z fuqarolarini o'zboshimchalik va adolatsizlikdan himoya qilishni ta'minlashi kerak.

Uchinchi bobning 3-paragrafi "Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten falsafasida yetuk va barkamol avlod muammolari" deb nomlanadi.

"Qutadg'u bilig" asarining markaziy qahramonlaridan biri Oyto'ldidir. Oytoʻldi oʻziga yarasha ramziy ma'noga ega adabiy qahramon. Uning turkiy ismidagi oy va to'ldi qismlari tagma'nosida bilim olgani sari oyday to'lishib borayotgan, mukammallikka intilayotgan shaxs degan tushunchalar yotadi. "Oyto'ldi – demak u bilim egallash riyozatlari bilan hilol – yangi oy edim, oyday toʻldim"²⁹. Bilimning insonni mukammallashtiruvchi, barcha kamchiliklarini qiyinchiliklar tuzatuvchi, hayotidagi va mashaqqatlarga ma'no-mazmun bagʻishlovchi omil ekanini shoir Oytoʻldiga mujassamlashtirgan. Asar syujetida Oytoʻldi tilidan bilimning qadr-u qimmati va aziz-u mukarramligi xususida, uning falsafiy mohiyati va ijtimoiy vazifalari xususida qator fikrlar berib boriladi. "Asar qahramonlari jonli shaxslar – Elig – Kuntugʻdi – adolatli, insofli hukmdor, Oytoʻldi - donishmand, tadbirli, tajribali alloma, murakkab xarakterli shaxs, yurt, jamiyatga foydasi tegishini o'ylab poytaxtga keladi va musofirparvar Ko'salish yordamida Eligning Xos Hojibi Ersig bilan tanishib, u tufayli Kuntugʻdi saroyiga kirib boradi"30. Shu oʻrinda bilimning pragmatik mohiyati haqida Yusuf Xos Hojibning oʻziga xos yondashuvi singdirib yuborilgan. Ma'lumki, tarixda bilimdon insonlar, ilm egalarining hukmdorlarga xizmat qilishi, ularga maslahatgo'y bo'lishi haqidagi qiziqarli qarashlar bor.

Montenning fikricha, boshqa odamlar bilan muloqot qilishda, bitta umumiy illatga duch kelamiz: boshqalarni bilishga intilish oʻrniga, biz faqat oʻzimizni qanday koʻrsatishimiz kerakligi haqida qaygʻuramiz. Kamgaplik va kamtarlik jamiyatda juda qadrli boʻlgan fazilatlardir. Chunki boshqalar tomonidan bildirilgan va bizning didimizga mos kelmaydigan narsalarni rad etish juda odobsiz va yoqimsizdir. Inson oʻzini tuzatish bilan qanoat qilsin, yuragida boʻlmagan narsa uchun boshqalarni malomat qilmasin, qabul qilingan odatlarga qarshi chiqmasin.

https://nrm.uz/contentf?doc=719850 &products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistana

18

_

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (Янги тахрири). 2023 йил.

 $^{^{29}}$ Қутадғу билиг: (Билим саодати) / Юсуф Хос Хожиб, Абдуҳамид Пардаев табдили. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2016. - 14 б.

 $^{^{30}}$ Мадалиева Я. ва бошқ. "Қутадғу билиг"нинг бадиий тили / "Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси "Қутадғу билиг" ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция тўплами. — Тошкент, 2020. — Б. 266.

